

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
on the theme "Architecture is the Abode of Time" which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

XORAZM VOHASIDA MAHALLIY TURAR-JOY QURILISHI AN'ANALARI

Technical faculty of Urganch State University

Karieva Nazokat Jumanazarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasida yashovchi aholi foydalanib kelgan turar-joy turlari, xajmiy-fazoviy kompozitsion tuzilishi, mahalliy qurilish materiallari va mustahkamlik omillari, hamda qurilish san'ati masalalari haqida so'z yuritiladi.

В данной статье рассматриваются типы жилищ, которыми пользовались жители Хорезмского оазиса, объемно-пространственная композиционная конструкция, местные строительные материалы и коэффициенты прочности, а также вопросы строительного искусства.

Kalit so'zlar: Istiqomat manzilgohlari, turar joy, qo'rg'on, ulug' ayvon, ters ayvon, hovli, paxsa devor, nigirik, sinch devor.

Kirish

Xorazm vohasida istiqomat manzilgohlari, ya'ni, turar-joylarning rivojlanishiga hududning geografik joylashuvi, tabiiy iqlim sharoiti, shuningdek ma'lum qurilish materiallari mavjudligi, qurilish texnikasi va dizayn texnikasining o'xshashligi kabi bir qancha umumiy xususiyatlar ta'sir etadi.

Xorazm vohasida istiqomat manzilgohlarining ikki asosiy xilini ajratish mumkin: shahar uylarini va qishloq uylarini. Qishloq, ya'ni dala uylari (hovli, qo'rg'on) shahar uylaridan birmuncha farq qilgan. Qishloqlar o'ziga xos mustaqil tuzilmalarni hosil etgan. Bu tuzilmalar bir-birlaridan turlicha (uzoq-yaqin) masofalarda joylashgan.

Muhokama

Vohada azaldan qurilish materiallari tanqis va uning sug'orma dehqonchilik hududlarida tog'-toshlar yo'q. Chayla tiklash yoki tom bostirish uchun qamish, tol, terak kabi qurilish materiallari esa istalgancha topilgan. Shuning uchun ham avlod ajdodlarimiz yozning jazirama issig'i va qishning izg'irin sovug'idan saqlaydigan loy-tuproqdan qalin paxsa devorli uylar, shaharlar qurganlar. [1]

Bu qalin baland devorlar bir tomondan shahar - qal'alarni dushmandan himoyalash uchun mudofaa devorlari bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yoz va qish kunlari qulay mikroiklimni yaratib bergan.

Xorazmda paxsa devor qurish an'anasi eng qadimgi davr arxiak davriga borib taqaladi, unda shahar va qishloq manzilgohlardagi o'troq turmush an'analari nafaqat Xorazm hududi, balki O'rta Osiyoning shaharlar paydo bo'lguncha mavjud bo'lgan tsivilizatsiyalar keng olami bilan ham bog'liq bo'lgan degan taxmin mavjud. [2]

Paxsa devor qurish an'anasi Xorazmda bugungi kunda ham qishloq turar joylarini barpo etishda qo'llanilib kelmoqda.


Mahalliy aholi turar joylarni barpo etishda lyossimon sog' tuproqdan foydalangan va u asosiy qurilish materiali bo'lgan, undan paxsa va xom g'isht tayyorlangan. Sog' tuproqdan, shuningdek, qurilish qorishmasi yoki devorni suvash uchun loy tayyorlangan. [3]

Qadimgi me'morchilik inshootlarini qurish an'analarga ko'ra paxsa devor asosan devorning tub qismlari ya'ni asosda ishlatilgan, xom g'ishtdan esa devorning o'zi, ravoq va gumbazlarni qurishda ishlatilgan.

"Qal'a" ya'ni shahar (keksa yoshdagi shahar va qishloqlarning aholisi bugungi kunda ham shaharni "qal'a" deb ataydi) atrofida saroylar bilan bir qatorda xon va beklarning dala hovlilari ko'p bo'lgan. Xorazmda bunday dala hovlilar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligi shaharsozligida uchratishimiz mumkin. Har bir Xiva xoni o'z davrida dunyoda tengsiz bir saroy yoki dala

hovli qurishga harakat qilgan. Ichan qal'a shahristoni tashqarisida Deshan qal'a hududlarida Nurullaboy hovlilari, CHodra hovli, Qibla Toza bog' hovlilari mavsumiy yashashga: bahor, yoz va kuz oylarida yashashga mo'ljallanib, katta bog' o'rtasida qurilgan.

Xiva saroylari va qasrlari orasida eng mashhurlaridan biri Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan 1897 yilda qurilgan Qibla Toza bog' hovli saroyidir. Saroy o'zining kengligi, me'moriy uslubi, Xivaga xos ayvonlarning turli tumanligi, qurilish texnikasining betakrorligi bilan ajralib turadi. Saroy uchta katta kompleksdan iborat: birinchi hovli xon va saroy ahli xizmatkorlar uchun, ikkinchi hovlida xon va uning oila a'zolari yashaydigan bir necha ayvon, uchinchi hovli-ovro'pacha uslubda qurilgan ayvon va xonalardan iborat.



Asfandiyorxon davrining ilk yillarida (1913y) qurilgan ushbu uchinchi hovli xuddi 1912 yilda Nurullaboyda qurilgan qabulxonaga o'xshatib qurilgan, lekin bu yerda ustalar ko'proq gireh (geometrik) naqshlarni ishlatganlar. Qadimda saroy o'rtasida hovuz, gulzor mavjud bo'lib, hovuz atrofiga soyasi kishi taniga orom bag'ishlaydigan gujum daraxtlari ekilgan.

Bunday dala hovlilardan yana biri Xiva shahri tashqarisida Sayot bog'ida joylashgan CHodra hovli me'moriy yodgorligi bo'lib, Muhammad Rahimxon tomonidan yozgi dam olish qarorgohi sifatida 1871 yilda qurilgan.

Bino Xiva xoni avlodlari uchun mavsumiy dam olish uyi sifatida saroy andozasida paxsa loydan tiklangan va qadimiy me'morchilik an'anasini o'zida mujassamlashtirgan. Bino atrofi mahalliy ekaladigan manzarali va mevali daraxtlar bilan o'rab olingan va Xorazm bog'-landshaft me'morchiligi namunasi sifatida diqqatga sazovordir.



O'zbekistonning turli mintaqalarida uylarning tuzilishi xilma – xil bo'lgan va X.Po'latov asosiy uchta hudud uylarini: Xorazm, Buxoro va Farg'ona uylari tuzilishida boshqa hudud uylaridan farqliroq ekanligini ajratadi. Mahalliy turar-joylar qurilishida rejaviy tuzilish katta ahamiyat kasb etgan va me'morchilik bilimi va geografik joylashuv muhim ta'sirini o'tkazgan.

Natija

Xorazmliklar uylarini tashqi noqulay iqlim sharoitidan muhofaza qilish maqsadida hovlilar kichkina qilingan, ustining deyarli hammasini yopishga harakat qilingan. Qishloq uylari shahar uylariga qaraganda bichimi soddaroq, ayvonning ahamiyati balandroq bo'lgan. Xiva turar uylarida yozgi maydon qishgi maydondan ikki barobarga ko'p bo'lgan va ochiq va yopiq ayvonlar bilan xarakterlangan.

Xiva uylarida ikki qavatga bo'y cho'zgan katta ayvon (ulug' ayvon) shimolga qaratilgan. U Orol dengizidan keladigan salqin havoni hovli ichiga yo'naltirilgan. Katta ayvonning qarshisida kichik ayvonni (ters ayvon) qurishgan. Yashash xonalarini katta va kichik (ulug' va ters) ayvonlarning orqasida joylashtirishgan. Ushbu ters ayvonning loyihaviy tarkibi shundaki unda ikkita ayvon bir biriga qarama – qarshi qilib loyihalanadi. Bunda bir ayvon balandligi 3-4 m balandlikda bo'lsa, ikkinchi ayvonning balandligi 5-7 m balandlikda bo'ladi.



Ulli ayvon. XX-asr boshlari (arxiv ma'lumotlaridan olingan)

Bundan maqsad shundaki uydagi shamol aylanishini ta'minlashdir. Nisbatan baland qilib qurilgan ayvon o'zida shamolni ushlab qolib uni kichik ayvonga etkazadi, shu orqali hovlida shamol aylanishi ventilyatsiya vazifasini bajargan va uyga salqinlik bag'ishlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida uylar qurilishida Evropa me'morchiligi ta'siri ko'zga tashlanadi. Uylarda yangi qurilish ashyolari (tunuka, oyna, fanera, salloti g'isht, moyli bo'yoq kabilar) ning qo'llanish miqyosi kengayishi natijasida ichki va tashqi ko'rinishi o'zgardi. Yangicha poydevor, to'rt qirrali ustunlar, nishabli tom (strapila), temir panjara ishlatildi. Xonalarning taglariga erto'la qilish, taxta pol, eshik oldi qurilmasi (kriltso) joriy bo'ldi. O'zgarishlar eshik – derazalarning o'lchamlari va tuzilishlarida ham namoyon bo'ldi. Yashash xonalarning tarkibi, ularning o'zaro birikuvi an'anaviy holatda davom etdiriladi. Uy ichki bezagi inter'erida rangdor naqshlardan shift va devorlar bezatilgan, ganch va yog'och o'ymakorliklaridan keng foydalanilgan. Uy ayvonlarini bezashda o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan ustunlar xalq ustalari – ijodida Xorazm amaliy san'atining o'ziga xos hususiyatlari aks etgan.

Ma'lumki, bizning hududimiz Respublikada seysmik hudud hisoblanadi. Mahalliy an'analar qatorida turar-joy qurilishida devor ko'pincha yog'och karkas qilinib sinchli (xalq tilida "nigirik") devorlar konstruksiyasidan foydalanilgan. Mahalliy qurilish materiallaridan tiklanadigan sinchli uylarning konstruksiyasi odatda, yuk ko'taruvchi tashqi devorlar qo'sh sinch, ichki devor yoki pardevorlar esa yakka sinch qilib ishlanadi.[4]

Sinch devorli imoratlarni qurish ancha murakkab bo'lib, agar sinchli devor qoida bo'yicha qurilmasa, qo'yilgan talabni oqlamasligi, ya'ni er silkinishiga bardosh bera olmasligi mumkin. Sinchlar o'rnatilayotgan vaqtda qurilish ketma-ketligiga alohida ahamiyat berilgan va bino hududning seysmikligiga bardosh bera olgan.

Binoning konstruktiv asosini nigirik devor – ya'ni sinchdan tashkil etilgan va sinchlar orasiga xom g'isht bilan loy urilgan. Bu yerdagi yozgi va qishgi xonalarning joylashuvi katta-kichikligi, bezaklari Buxoro, Samarqand va Farg'ona uy-joylaridan tamoman farq qiladi. Bu yerda yoz juda issiq, qish esa sovuq bo'ladi. Xiva uy-joylarini tashqi ko'rinishi juda ajoyibdir: har bir uyda shimol tomonga qaratib ayvon quriladi, ayvon xona va hovli havosini yangilab turishga mo'ljallangan. Bu yerdagi ayvonlar ikki xil tuzilishga ega. Ulli (Ulug') ayvon xonaning old qismini egallagan va undan ancha baland ko'tarilgan. Uning qarshisida teskari kichikroq ayvon o'rnatilgan. Ulli ayvon shamol esadigan tomonga ya'ni shimolga qaratilgan bo'lib, shamolni hovliga yo'naltirgan. Aslida ikkala ayvon ham hovlini tom bilan yopgandek tuyuladi. Ayvon o'z vazifasidan tashqari imoratning umumiy kompozitsiyasini badiiylashtirgan va uning me'moriy yechimini boyitgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, vohada davr o'tishi bilan bino va inshootlarning xillaridagi va konstruksiyalaridagi hamda qurilish ashyolaridagi dastlabki o'zgaruvlar bilan xarakterlanadi. O'zgaruvlar davr o'tishi bilan esa kengayadi.

Xalq me'morligida paxsa, guvala, xom va yapaloq pishiq g'isht qo'llanilgan. Qishloq uylarni qurishda to'g'ri to'rtburchak yuzali g'isht "xom karuch" ishlatila boshlagan va bu g'ishtlar "xom" ya'ni pishirilmagan bo'lgan va uni mahalliy xalq o'zi qolipda quyib tayyorlagan.

Xorazmda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turar uylar xilma – xil bo'lgan. Kambag'allarniki sodda va kichik, boylarniki ko'p xonali, naqshinkor edi. Asosan xona, daxliz va ayvon kabi muhitlardan tashkil topgan. Aksari tashqari va ichkari xovlilardan iborat edi. Hovli sahnida sufa bo'lib, tok, tut, o'rik, olma kabi mevali daraxtlar ekilgan. Deyarlik har hovlidan ariq o'tkazilib, undan suv ichilgan, ekin sug'orilgan. SHahar devoridan tashqaridagi yozlik uy – *qo'rg'on*larning muhofazasiga alohida e'tibor berilgan. Devorlari paxsadan urilib, ba'zan guldasta (devorga tutash minorasimon element) bilan bezalar edi. Qo'rg'on uylarda yopiq xonalardan ko'ra ko'proq ayvonlardan foydalanilgan.[5]

Tarixan shakllangan Xorazm mahalliy uy-joy qurilishini o'rganish bizga hozirgi zamonaviy uy-joy va jamoatchilik qurilishida foydalanish hamda qo'llash mumkin bo'lgan juda ko'p qimmatli ma'lumotlarni beradi. Uyni oqilona, tejamkor, qulay va chiroyli qurish qobiliyati, ventilyatsiyaning mohir usullar, eng oddiy antiseysmik usullar, mahalliy materiallarning xususiyatlarini bilish, o'rganish va o'zlashtirishga loyiqdir.

Vohada qishloq uylarining aksariyati bugungi kungacha loy me'morchiligi maktabi ana'analariga tayangan xolda qurilmoqda va iqtisodiy jihatdan qulayligini va sog'liq uchun foydasini bilgan xalq bu tamoyillarni yana davom qiladi.

Ushbu qurilish tamoyillari, shuningdek, so'nggi yillarda to'plangan ulkan faktik materiallar muallifga qishloq uy-joylari mavzusiga tubdan yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тостов П. Древний Хорезм 1948.
2. Xodjaniyazov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (Mil.avv. VI asrdan mil. IV asrgacha). Toshkent – "O'zbekiston" NMIU, 2007 y.
3. Setmamatov M.B. «Xorazm loy me'morchilik maktabining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixidan» Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi – 1/2017. 59-61-b.
4. Ishoqov M.M. Salaev I.B. Xorazm vohasi qurilish tizimida sinchkorlik (nigirik) an'anasi va va zamonaviy tendentsiyalar. Oriental Journal of Social Sciences ISSN: 2181-2829 sSJIF for 2022.
5. Karieva N.J., Ibadullaev I. Улучшение жилищного строительство в сельской местности Хорезмского оазиса - Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi – 3/2016. 11-b.